Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tende...

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI MISOLIDA YASHIL ENERGETIKA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMLARINI SOLISHTIRISH

JABBOROV XURSHID TO‘RAMUROD O‘G‘LI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasi
Mustaqil izlanuvchisi

Global iqlim o‘zgarishlarining tez sur’atlarda kuchayishi, uglerod izini kamaytirish zarurati hamda resurslarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash hozirgi vaqtda ko‘plab davlatlarning iqtisodiy siyosatida asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, energetika sohasi global issiqxona gazlari chiqindilarining katta qismini tashkil etishi sababli, yashil energetikaga o‘tish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, mamlakatlar miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ularni moliyalashtirish masalalari strategik ahamiyatga ega bo‘lib qoldi.

O‘zbekiston iqtisodiy-energetika tizimida tabiiy gazga yuqori darajada qaramlik saqlanib qolmoqda: 2019 yilda mamlakatda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining taxminan 85 foizi gazga asoslangan termoelektr stansiyalari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Bu holat mamlakatning energetik xavfsizligi va atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish nuqtai nazaridan jiddiy muammo yaratmoqda, chunki gaz resurslari cheklangan va global bosim ostida kamaytirilishi talab etilmoqda. [1] Shu bilan birga, 2018 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan quvvat mamlakat energiya iste’molining atigi 3 % ini tashkil etgan. [1] Biroq, respublika hukumati joriy va kelgusi yillarga mo‘ljallangan strategiyalar orqali bu nisbatni tubdan oshirishni maqsad qilgan: masalan, 2024 yilda mamlakat 2030 yilga borib qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 27 GW gacha jalb qilish va elektr energiya ishlab chiqarishda 40 %gacha RES hissasini yaratish choralarini e’lon qilgan. Shuningdek, 2030 yilga qadar GHG intensivligini 2010 yillarga nisbatan 35 %gacha kamaytirish maqsadi qo‘yilgan. [2] Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun, odatiy moliyaviy manbalar etarli bo‘lmasligidan kelib chiqib, zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarurati yuqori.

So‘nggi o‘n yillikda yashil energetika va barqaror moliyalashtirish xalqaro ilmiy e’tiborda bo‘lib kelmoqda. Zhang va Yang (2021) yashil moliyalashtirishni nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rishadi. OECD (2023) hisobotiga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar

Published: 05.06.2026

Cite this article: Jabborov Xurshid To‘ramurod o‘g‘li (2026). O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi misolida yashil energetika loyihalarini moliyalashtirish tizimlarini solishtirish. Emro Science and Education, 2(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/861

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

har yili yalpi ichki mahsulotning 2-3 % ini yashil sarmoyalarga yo‘naltirishi zarur.

Yevropa misolida, European Environment Agency (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda yashil obligatsiyalar emissiyasi 6,9 % ni tashkil qilib, barqaror o‘sish kuzatilmoqda. European Commission (2024) “NextGenerationEU” dasturi orqali yashil obligatsiyalarni davlat byudjeti investitsiyalari bilan uyg‘unlashtirib, davlat-xususiy sheriklik (PPP) va ESG mezonlarini integratsiyalash tajribasini yaratgan.

Kyei, Mensah va Zhang (2024) Analytic Hierarchy Process (AHP) usuli orqali yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilib, davlat kafolatli yashil obligatsiyalar va grant-kredit kombinatsiyalarini eng samarali deb topishgan. World Bank (2025) va IFC (2024) hisobotlari esa blended finance modelini rivojlanayotgan mamlakatlarda kapitalni safarbar qilishning barqaror usuli sifatida ta’kidlaydi.

O‘zbekiston olimlari ham so‘nggi yillarda yashil moliya va energetika investitsiyalarini o‘rganmoqda. Fayziyev (2023) qayta tiklanuvchi energetika loyihalarida davlat-xususiy sheriklik va xorijiy kompaniyalar bilan shartnomalarning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilgan. Umirova (2024) esa yashil obligatsiyalar O‘zbekiston kapital bozorining likvidligini oshirishi mumkinligini, ammo me’yoriy-huquqiy bazaning yetarlicha rivojlanmaganini ta’kidlaydi. Shuni ko‘rish mumkinki, O‘zbekiston tadqiqotchilari asosan amaliy jihatlarga e’tibor qaratgan, lekin xalqaro moliyaviy standartlarni milliy sharoitga moslashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

Yashil energetika loyihalarini moliyalashtirishda Yevropa Ittifoqi (YeI) va O‘zbekiston tajribasini taqqoslash siyosiy, moliyaviy va institutsional yondashuvlarni ko‘rsatadi. YeI mamlakatlarida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish barqaror moliyaviy instrumentlar, davlat siyosati va xususiy sektor ishtirokini uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Asosiy mexanizmlar orasida yashil obligatsiyalar bozori alohida rol o‘ynaydi: 2015 yildagi 0,3 % ko‘rsatkichdan 2024 yilda 6,9 % gacha o‘sish kuzatilgan, “NextGenerationEU” dasturi doirasida 12 milliard yevrolik paket qayta tiklanuvchi energiya va elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilishda ishlatilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik modeli va ESG standartlari xususiy investitsiyalarni jalb qilish va risklarni kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yashil energetikaga e’tibor so‘nggi yillarda oshdi. Hukumat 2030 yilgacha RES quvvatini 27 GWgacha yetkazish va elektr ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 40 % ga oshirishni maqsad qilgan. 2024 yilda shamol va quyosh elektr stansiyalarining ishlab chiqarishi 4,8 milliard kVt/soatga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 30 % ga o‘sdi. Gidroenergetika quvvati 2014-2023 yillarda 1,87 ming MWdan 2,42 ming

MWgacha o‘sib, energiya tizimining diversifikatsiyasi va uglerod chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o‘ynadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Jahon banki, ADB, IFC va EBRD bilan hamkorlikda bir qator yirik yashil energetika loyihalarini amalga oshirmoqda. Masalan, Buxoroda quyosh va energiya saqlash tizimlari loyihasi uchun IFC 53 million, ADB esa 106 million dollar kredit ajratgan. 2024 yilda esa chiqindilardan energiya ishlab chiqarish bo‘yicha 1,3 milliard dollarlik yangi dastur e’lon qilindi (World Bank, 2025). [4].

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqida yashil energetika loyihalarini moliyalashtirish institutsional, huquqiy va moliyaviy jihatdan rivojlangan: EU Green Taxonomy, ESG standartlari va yashil obligatsiyalar bozori asosiy rol o‘ynaydi. 2024 yilda emissiya 6,9 % ga yetgan bo‘lsa, 2027-2030 yillarda 10-12 % gacha o‘sishi kutilmoqda, bunda davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va raqamli monitoring tizimlari uzoq muddatli kapital oqimlarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston tajribasi siyosiy va institutsional jihatdan ijobiy bo‘lsa-da, moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasi, ichki kapital bozori likvidligi va investor ishonchi rivojlanish bosqichida. EBRD, IFC, ADB va Jahon banki orqali amalga oshirilayotgan PPP/IPPlar va blended finance loyihalari muhim tajriba yaratmoqda. 2024 yilda sarmoyalar hajmi $3,2 mlrd dan oshib, o‘rnatilgan RES quvvati 4,5 GW atrofida bo‘ldi; OECD hisob-kitoblariga ko‘ra, yashil o‘tish maqsadlariga erishish uchun yillik $6 mlrd investitsiya zarur.

O‘zbekiston uchun optimal yo‘l YeI modelini to‘liq nusxa ko‘chirish emas, balki uni milliy iqtisodiyot va fiskal sharoitlarga moslashtirilgan adaptiv integratsiya orqali barqaror, shaffof va investitsion jozibador tizim yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. European Environment Agency. (2024). Green bonds: An indicator for the 8th Environment Action Programme. Retrieved October 15, 2025, from https://www.eea.europa.eu

2. Association for Financial Markets in Europe (AFME). (2024). Q4 2024 ESG Finance Report. Retrieved October 15, 2025, from https://www.afme.eu

3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Financing Uzbekistan’s green transition. OECD Green Finance and Investment Series. Retrieved October 15, 2025, from https://www.oecd.org

4. International Energy Agency (IEA). (2024). Solar energy policy in Uzbekistan: A roadmap for renewable integration. Retrieved October 15, 2025, from https://www.iea.org

5. World Bank. (2025, May 15). Uzbekistan to invest in modernizing electricity distribution networks with World Bank support. Retrieved October 15, 2025, from https://www.worldbank.org

6. International Finance Corporation (IFC). (2025). Bukhara Solar + BESS project overview. Retrieved October 15, 2025, from https://www.ifc.org
7. International Renewable Energy Agency (IRENA). (2024). Renewable capacity highlights 2024. Retrieved October 15, 2025, from https://www.irena.org
8. Kyei, R., Mensah, F., & Zhang, L. (2024). AHP-based comparative framework for renewable energy finance prioritization. In Advances in Sustainable Energy Systems (pp. 415-430). Springer. https://link.springer.com

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti